O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Bug‘doy oqsili mahsulotlari. Bug‘doy kleykovinasi uchun standart

(CODEX STAN 163:1987, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #DH8P1X25I8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yildagi 25-fevraldagi 6/XSt-26 -sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart CODEX STAN 163:1987 “Standard for wheat protein products including wheat gluten” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #DH8P1X25I8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Bug‘doy oqsili mahsulotlari. Bug‘doy kleykovinasi uchun standart

Стандарт на белковые продукты из пшеницы, включая пшеничную клейковину

Standard for wheat protein products, including wheat gluten

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart bug‘doydan turli usullar bilan olinadigan bug‘doy oqsil mahsulotlariga tatbiq etiladi. Ushbu mahsulotlar keyingi ishlov berishni talab qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llash uchun hamda oziq-ovqat sanoatida foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Kleykovina tarkibiga ega bo‘lmagan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda bug‘doy kleykovinasi yoki bug‘doy oqsil mahsulotlari texnologik maqsadlarda, masalan, sirtga ishlov berish yoki texnologik qo‘shimcha sifatida qo‘llanilmasligi kerak[1].

2 Tavsif

2.1 Ta’riflar

Ushbu standart doirasiga kiruvchi bug‘doy oqsil mahsulotlari (BO‘M) — bu bug‘doy yoki bug‘doy unidan ayrim oqsil bo‘lmagan tarkibiy qismlarni (kraxmal, boshqa uglevodlar) ajratib olish yo‘li bilan ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlaridir.

- Nativ bug‘doy kleykovinasi namlanganda yuqori darajadagi yopishqoq-elastik xususiyatlari bilan tavsiflanadi.
- Denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasi denaturatsiya natijasida namlanganda yopishqoq-elastik hususiyatlarining kamayishi bilan tavsiflanadi.
- Eruvchan bug‘doy oqsillari bug‘doy kleykovinasining qisman gidrolizi tufayli namlanganda yopishqoq-elastik hususiyatlarining kamayishi bilan tavsiflanadi.

3 Tarkib, sifat va oziqlantiruvchi qiymati – Asosiy ko‘rsatkichlar

3.1 Xom ashyo

Yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti tamoyillariga muvofiq holda, deyarli boshqa o‘simlik urug‘lari va begona aralashmalardan xoli bo‘lgan bug‘doy yoki bug‘doy uni.

3.2 Tarkibga qo‘yiladigan talablar

BO‘M quyidagi tarkibiy talablarga javob berishi lozim:

3.2.1 Namlikning massaviy ulushi: 10 % dan oshmasligi kerak.

3.2.2 Xom oqsil (N × 6,25):

STANDARTLAR INSTITUTI #DH8P1X25I8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Rasmiy nashr

- nativ va denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasi uchun: kamida 80 %;
- eruvchan bug‘doy oqsillari uchun: kamida 60 %.

Xom oqsil miqdori quruq vaznga nisbatan hisoblanadi, 3.3-bo‘lim qoidalariga muvofiq ruxsat etilgan qo‘shilgan vitaminlar, minerallar, aminokislotalar va ixtiyoriy ingredientlar hisobga olinmaydi.

3.2.3 Kul miqdori

Quruq vaznga nisbatan foizlarda ifodalangan kul miqdori quyidagilardan oshmasligi kerak:

- nativ va denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasi uchun: 2,0 %;
- eruvchan bug‘doy oqsillari uchun: 10 %.

3.2.4 Xom kletchatkalar miqdori quruq vaznga nisbatan 1,5 % dan oshmasligi kerak.

3.3 Ixtiyoriy ingredientlar

Nativ va denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasida ixtiyoriy ingredientlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Eruvchan bug‘doy oqsillari uchun esa quyidagi ingredientlardan foydalanishga ruxsat etiladi:

a) uglevodlar, shu jumladan shakarlar;

b) oziq-ovqat yog‘lari va moylari;

c) boshqa oqsil mahsulotlari;

d) aminokislotalar, vitaminlar va minerallar.

e) tuz;

f) ziravorlar va o‘simlik qo‘shimchalar;

g) fermentlar.

3.4 Oziqlantiruvchi hususiyatlar ko‘rsatkichlari

Ishlov berish jarayoni mahsulotning optimal hid va ta’mini ta’minlash uchun qat’iy va diqqat bilan nazorat qilinishi kerak.

Ishlov berish mahsulotning oziqlantiruvchi qiymatini sezilarli darajada kamaytirmasligi lozim.

4. Oziq-ovqat qo‘shimchalar

Nativ va denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasida **oziq-ovqat** qo‘shimchalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Ifloslovchi moddalar

Ushbu standart talablariga mos keladigan mahsulotlar "Codex Alimentarius" Komissiyasi tomonidan belgilangan maksimal ruxsat etilgan ifloslantiruvchi modda miqdori talablariga javob

---

[1] Bunda ushbu mahsulotlarni qadoqlangan kompozitsion oziq-ovqat mahsulotlarining ingredientlari sifatida qo‘llash istisno etilmaydi, agar ularning mavjudligi tamg‘alanishda tegishli tarzda ko‘rsatilgan bo‘lsa.

berishi lozim.

STANDARTLAR INSTITUTI #DH8P1X25I8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

6. Sanitar-gigiena talablari

6.1 Ushbu standart talablariga mos mahsulotlarning ishlab chiqarilishi va keyingi muomala qilinishi "Oziq-ovqat mahsulotlarining gigiyena bo‘yicha umumiy tamoyillari" (CXC 1-1969, Rev 3-1997) va boshqa tegishli Codex standarti, masalan, gigiyena amaliyoti kodekslari va qoidalar to‘plamlariga muvofiq amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

6.2 Mahsulotlar "Oziq-ovqat mahsulotlari uchun mikrobiologik mezonlarni belgilash va qo‘llash bo‘yicha tamoyillar va uslubiy ko‘rsatmalar" (CXG 21-1997) bilan belgilangan barcha mikrobiologik mezonlarga javob berishi kerak.

7. Qadoqlash

BO‘M gigiyenik qadoqlash materiallariga solinadi, bu esa mahsulotni saqlash va tashish vaqtida quruq holatda va tegishli sanitariya sharoitlarida saqlash imkonini beradi.

8. Tamg‘alash

Paketlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart (CXS 1-1985, Rev 1-1991) talablariga qo‘shimcha ravishda quyidagi maxsus qoidalar tatbiq etiladi:

8.1 Oziq-ovqat mahsuloti nomi

8.1.1 Nativ bug‘doy kleykovinasi

Mahsulot nomi "nativ bug‘doy kleykovinasi" yoki "bug‘doy kleykovinasi" bo‘lishi kerak.

8.1.2 Denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasi

Mahsulot nomi "denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasi" bo‘lishi kerak.

8.1.3 Eruvchan bug‘doy oqsillari

Mahsulot nomi "eruvchan bug‘doy oqsili" bo‘lishi kerak.

8.2 Foydalanish bo‘yicha ko‘rsatma

BO‘M ishlab chiqaruvchisi mahsulotning maqsadiga muvofiq yorliqdagi ma’lumotlarga binoan aniq foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Agar milliy qonunchilik talab qilsa, kleykovinaga sezgir iste’molchilarni xabardor qilish maqsadida yorliqda tegishli belgi ko‘rsatiladi.

8.3 Saqlash muddati ko‘rsatilishi

Saqlash muddati kun, oy va yil aniqligida raqamli tartibda ko‘rsatiladi, faqat muddat uch oydan oshadigan mahsulotlar uchun oy va yil ko‘rsatilishi yetarlidir. Ba’zi mamlakatlarda oy harf bilan ko‘rsatilishi mumkin, agar iste’molchini chalg‘itmasa. Faqat oy va yil ko‘rsatilishi talab qilinadigan mahsulotlar uchun, muddat tugash yilida, alternativ sifatida "belgilangan yil oxirigacha" iborasi ishlatilishi mumkin.

8.4 Ingredientlar ro‘yxati

Ingredientlarning to‘liq ro‘yxati yorliqda ularning ulushi kamayish tartibida ko‘rsatiladi, faqat vitaminlar va minerallar qo‘shilganda bundan mustasno; bu ingredientlar alohida guruhlarga ajratiladi — vitaminlar va minerallar uchun, va ushbu guruhlar ichida vitaminlar va minerallar ulushi kamayish tartibida sanab o‘tiladi.

8.5 Transport idishini tamg‘alanishi

Transport **idishini** tamg‘alanishi "Oziq-ovqat mahsulotlari uchun transport **idishini** tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart" (CXS 346-2021) talablariga javob berishi lozim.

8.6 Hayvonlardan olingan ingredientlarni ko‘rsatish

Hayvonlardan olingan ixtiyoriy ingridiyentlar (majbur bo‘lmagan) yorliqda quyidagicha ko‘rsatiladi:

STANDARTLAR INSTITUTIDAGI H8P1X25I8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

"Tarkibida (ixtiyoriy ingredient nomi) hayvonlardan olingan".

9. Tahliy va namuna olish usullari

9.1 Namlik miqdori
AOAC 925-09 ga muvofiq.
9.2 Oqsil
Nativ va denaturatsiyalangan bug‘doy kleykovinasi
AOAC 979.09 ga muvofiq.
Eruvchan bug‘doy oqsili
AOAC 920.87 ga muvofiq.
9.3 Kul miqdori
AOAC 923.03 yoki ISO 2171 (1980, B usuli) ga muvofiq.
9.4 Xom klechatka
AOAC 962.09 ga muvofiq.
9.5 Namuna olish
ISO 13690:1999 ga muvofiq.

STANDARTLAR INSTITUTI #DH8P1X25I8 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI